



www.isft.uz

**“ISFT” ILMUY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL**

ISSN: 3030-329X

2024/3-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA HARBİY-VATANPARVARLIK RUHIDAGI AXBOROTLARNING YORITILISHI TENDENSIYASI

Laziz BO'RANOV¹

¹O'zbekiston Respublikasi mudosaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Markaziy kengashi matbuot kotibi, tadqiqotchi

KALIT SO'ZLAR

Harbiy-vatanparvarlik targ'iboti, harbiy teleko'rsatuvlar va bosma nashrlar, ommaviy axborot vositalari, Qurolli Kuchlar.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Военно-патриотическая пропаганда, военные телепередачи и печатные издания, средства массовой информации, Вооружённые Силы.

KEY WORDS

Military-patriotic propaganda, military television programs and printed publications, mass media, Armed Forces.

ANNOTATSIYA

Maqolada mamlakatimiz tarixida va bugungi kunida harbiy-vatanparvarlik mavzusining ommaviy axborot vositalarida yoritilishi misollar asosida tahlil etilgan. Aholi, ayniqsa, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlariga doir axborotlarning ta'sirchanligini oshirish yuzasidan takliflar keltirilgan.

АННОТАЦИЯ

В статье на примерах анализируется прежнее и сегодняшнее освещение в СМИ темы военного патриотизма в нашей стране. Вносятся предложения по повышению эффективности информационных материалов по воспитанию населения, особенно молодежи, в военно-патриотическом духе.

ABSTRACT

The article uses examples to analyze old and current media coverage of the topic of military patriotism in the republic. Proposals are given to increase the effectiveness of information materials on educating the population, especially young people, in a military-patriotic spirit.

Kirish. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimi uzliksiz jarayon bo'lib, u bir-biriga bog'liq siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-mafkuraviy, madaniy-ma'rifiy tadbirlar majmuasidan iborat. Bugungi kunda fuqarolarni, ayniqsa, yoshlarni ma'naviy-axloqiy va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari davlatimizning birinchi galdeg'i vazifalaridan hisoblanadi. Bu boradagi sa'y-harakatlarni aholiga yetkazish, shu bilan birga, ularda vatanparvarlik hissini faol shakkantirishda ommaviy axborot vositalari asosiy o'rin tutadi. Hozirgi zamonda ommaviy axborot vositalari faoliyati o'tgan davrlarga qaraganda anchayin takomillashgani harbiy-

vatanparvarlik targ'iboti ko'lami va samarasi yuqori bo'lishi imkoniyatini oshiradi.

Tadqiqot metodologiya. Mavzuni o'rganishda analiz va sintez, tarixiy va mantiqiy tahlil uyg'unligi kabi umumilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Jumladan, harbiy jurnalistika va harbiy-vatanparvarlik mavzularida dissertatsiya yoqlagan bir qator o'zbekistonlik va xorijlik olimlarning ilmiy ishlari hamda ushbu yo'nalishlarda respublikamizda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar ijrosi o'rganilib, tahlil qilindi. Shuningdek, respublikamizda tegishli vazirliliklar va idoralar tomonidan olib borilayotgan harbiy-vatanparvarlik



www.isft.uz

**“ISFT” ILMUY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL**

ISSN: 3030-329X

2024/3-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

targ‘ibotlarining ommaviy axborot vositalarida yoritilishi holati o‘rganildi.

Tahlil va natijalar. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – bu millati, tili va kasbidan qat‘i nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg‘asini shakllantirish, ularni o‘z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarning ko‘p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir [2].

Yoshlar Vatanini beminnat sevishlari, uni ardoqlashlari va buzg‘unchi kuchlardan himoya qilishlari, bir so‘z bilan aytganda, harbiylik kasbiga hurmat bilan munosabatda bo‘lishlari uchun, birinchi galda, ular orasida harbiy-vatanparvarlik targ‘ibotining o‘rnini e’tirof etish zarur.

Tarixdan ma’lumki, xoh demokratik davlatda bo‘lsin, xoh avtoritar davlatda – aholi, ayniqsa, yoshlar ongiga muayyan mafkuradan kelib chiqqan holda vatanparvarlik tuyg‘ulari singdirilgan (bunday jarayon dunyo bo‘ylab hozir ham davom etmoqda). Bunga AQSh va sobiq SSSR o‘rtasida 1945-yildan 1991-yilga qadar davom etgan sovuq urush davri yaqqol misol bo‘la oladi. Bu davr mobaynida har ikkala qudratlilik davlat o‘z fuqarolarini o‘z “qolipi” doirasida ma’naviy-axloqiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalab kelgan. Shu bilan birga, ular bir-birlarining boshqaruv uslublari va mafkuralarini qat‘iyan inkor etib, o‘z xalqlari ongida “dushman davlat” timsolini yarata olganlar. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, birinchi navbatda, o‘sha davrning ommaviy axborot vositalari – televide niye, radio va bosma nashrlar kuchiga tayanilgan.

Umuman olganda, harbiy-vatanparvarlik targ‘iboti Ikkinchiji jahon urushi davri (1941-1945-yillar)da yuqori darajaga ko‘tarilgan. Jumladan, urushda ishtirok etayotgan davlatlarning yetakchi gazetalarida hukumatlarning rasmiy xabarları, frontdagi jangu jadallar xronikasi bilan bir qatorda urushda biror-bir harbiy xizmatchi ko‘rsatgan qahramonlik, mardonavor harakatlar to‘g‘risida hikoya qiluvchi ocherklar hamda Vatanni sevishga va uni doimo himoya qilishga tayyor turishga da‘vat etadigan maqolalar chop etib borilgan. Targ‘ibotning bu kabi usullari, o‘z navbatida, jangchilar va front ortidagi fuqarolarning g‘alabaga bo‘lgan ishonchlarini mustahkamlab, buning uchun bor kuchg‘ayratlarini ishga solishlariga sabab bo‘lgan.

Birgina misol, frontlarda o‘zbek tilida 20 ga yaqin gazetalar chiqdi. Bu gazetalar o‘zbek askarlariga muntazam yetkazib turildi. Bu gazetalardagi maqolalar, ocherklar, xat-xabarlar o‘zbek harbiylarining jango varligini, ruhiyatini ko‘tarishga juda katta ta’sir ko‘rsatdi [1; 7]. Bu davr adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, M.Ismoilov, Ilyos Muslim, Nazarmat, Adham Rahmat, N.Safarov, Ibrohim Rahim, Z.Fatxullin, Adham Hamdam singari yozuvchi va jurnalistlar armiya saflariga jalb etilib, “Qizil armiya”, “Front haqiqati”, “Qizil askar haqiqati”, “Suvorovchi”, “Vatan sharafi uchun” singari o‘zbek tilida nashr etilgan front gazetalarida xizmat qildilar va yurtdoshlarining harbiy jasoratlarini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rib, ular haqida she’rlar va ocherklar yozdilar [1; 11].

Hozirgi globallashuv sharoitida esa dunyoning qaysi burchagida qurolli to‘qnashuvlar ro‘y berayotgan bo‘lsa, bu haqda odamlar asosan eng tezkor ommaviy axborot vositasi hisoblangan Internet tarmog‘i orqali xabardor bo‘lib borishmoqda. Shu bilan birga,



global tarmoq harbiy-vatanparvarlik targ‘ibotini hatto okopdagи askarning qo‘l telefoni orqali yetkazish imkoniyatini ham bermoqda.

Harbiy-vatanparvarlik targ‘iboti mavzusidagi axborotlar faqatgina harbiy ommaviy axborot vositalarida yoritilishi talab etilmaydi, ushbu yo‘nalishdagi materiallar istalgan ijtimoiy-siyosiy, adabiy-ma’rifiy manbalarda e’lon qilinishi mumkin. Negaki bu kabi materiallarda asosan mudofaa sohasidagi islohotlarga emas, aholi, ayniqsa, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularning Vatanga daxldorlik hissini oshirish ishlariga urg‘u beriladi.

Biroq shu o‘rinda harbiy-vatanparvarlik mavzusini keng yoritishda respublikamiz kuch tuzilmalarining axborot resurslari asosiy o‘rin tutishini ta’kidlash joiz.

Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining “Vatanparvar”, “O‘zbekiston armiyasi”, “Armiya sporti” ko‘rsatuvlari hamda “Vatanparvar” gazetasi va “O‘zbekiston armiyasi” jurnali boshqa kuch tuzilmalari muassisligidagi ommaviy axborot vositalariga qaraganda ko‘proq auditoriyaga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Mazkur ko‘rsatuvlar va bosma davriy nashrlar asosan quyidagi mavzularda axborotlarni e’lon qilib boradi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida ro‘y berayotgan yangiliklar, o‘zgarishlar va islohotlar;

2. Turli sharoitlarda harbiy xizmatchilarining jangovar tayyorgarliklari;

3. Harbiy sohada xalqaro hamkorlik aloqlari;

4. Respublikamizda va jahon miqyosida o‘tkaziladigan harbiy-sport o‘yinlari, musobaqalarida mamlakatimiz harbiy xizmatchilarining muvaffaqiyatli ishtiroki;

5. Yurtimiz tinchlik-osoyishtaligini himoya qilish chog‘ida qahramonlarcha halok bo‘lgan vatandoshlarimiz va harbiy xizmat mobaynida alohida o‘rnak ko‘rsatgan harbiy xizmatchilarining hayot yo‘llari;

6. Yoshlarni ma’naviy-axloqiy, harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ongiga vatanparvarlik, mehnatga mas’uliyatli munosabat, harbiy xizmatga hurmat tuyg‘ularini singdirishga qaratilgan tadbirlar.

Jumladan, quyidagi tadbirlarning to‘laqonli yoritib borilishi respublikamiz yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlariga salmoqli hissa qo‘shmoqda:

- “Jasorat maktabi” harbiy-vatanparvarlik o‘quv yig‘inlari;
- umumiyo‘t o‘rtalim mакtablarida tashkil etilgan “Vatan tayanchi” harbiy-vatanparvarlik harakati otryadlarining faoliyati;
- kuch tuzilmalari va manfaatdor tashkilotlar tomonidan keng miqyosda o‘tkaziladigan vatanparvarlik tadbirlari va harbiy-sport musobaqalari.

“Jasorat maktabi” harbiy-vatanparvarlik o‘quv yig‘ini. 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida, shuningdek, Xavfsizlik kengashi yig‘ilishida yoshlar bilan ishslashning yangicha tizimini joriy etish bo‘yicha belgilangan vazifalar ijrosi sifatida respublika bo‘ylab “Jasorat maktabi” harbiy-vatanparvarlik o‘quv yig‘inlariga start berilgan edi. Ushbu tadbir doirasida 100 nafar uyushmagan yoshlar 10 kun davomida harbiy qismda harbiylar kabi hayot kechiradi. Jumladan, harbiy kiyim-bosh kiyadilar, askarlar oshxonasida ovqatlanib, kazarmada ugraydilar hamda belgilangan vaqtarda jismoniy mashqlarni bajaradilar va ularga harbiy intizom,



www.isft.uz

**“ISFT” ILMUY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL**

ISSN: 3030-329X

2024/3-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

qurol-yarog‘dan foydalanish o‘rgatiladi. Eng asosiysi, u yerda yoshlar harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalanib, ular hayotda o‘z yo‘llarini topishlari va ma’lum bir foydali kasb egalari bo‘lishlari uchun aniq tavsiyalar beriladi. O‘z navbatida, ushbu jarayonlar ommaviy axborot vositalarida muntazam yoritib boriladi. Natijada nafaqat tadbirda ishtirok etayotgan 100 nafar yoshlarda, balki ularning hayotidan OAV orqali xabardor bo‘lib borayotgan kelajak avlod vakillarining aksariyatida harbiy xizmatga qiziqish va Vatanga daxldorlik hissi uyg‘onishi tayin.

“Vatan tayanchi” harbiy-vatanparvarlik harakati. Mazkur harakatga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-martdagи “Vatan tayanchi” bolalar va o‘s米尔ar harbiy-vatanparvarlik harakati faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-150-sonli qaroriga muvofiq asos solingan. Ushbu qarorga asosan, davlat umumta’lim maktablarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchisi rahbarligida tarkibi 20 nafar 10-11-sinf o‘quvchilaridan iborat bo‘lgan “Vatan tayanchi” otryadlari tuziladi va ularning faoliyati “Vatan tayanchi” harakati tomonidan muvofiglashtirib boriladi. E’tiborlisi, harakatning tegishli tavsiyanomalariga ega bo‘lgan otryad a’zolari respublika oliv harbiy ta’lim muassasalarining tegishli ta’lim yo‘nalishlariga o‘qishga kirishda test sinovlari natijalariga ko‘ra to‘plagan ballarining 5 foizi miqdorida qo‘sishmcha ball shaklida imtiyozga ega bo‘ladilar [3]. Tahlillarga ko‘ra, umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi “Vatan tayanchi” otryadlari a’zolari belgilangan tartibda harbiy kiyim-bosh, ko‘krak nishoni va imtiyozlarga ega ekanligini OAVda kuzatgan ko‘plab o‘quvchilar mazkur harakat safiga qo‘shilish istagini bildirganlar.

Vazirlik va idoralarning vatanparvarlik tadbirdari. Ta’kidlash joiz, respublikamiz ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, harbiy teleko‘rsatuvlar va bosma nashrlarda harbiy-vatanparvarlik tadbirdari to‘g‘risida e‘lon qilib borilayotgan axborotlar ko‘lami jangovar tayyorgarlik mavzusidagi materiallardan kam emas. Xususan, harbiy qismlar yoki tashkilotlarda o‘tkaziladigan “Ochiq eshiklar kuni” tadbirdari, yurtimizda yetishib chiqqan buyuk sarkardalarning hayot yo‘llariga bag‘ishlangan ma’naviy-ma’rifiy uchrashuvlar, yoshlarning turli kasb-hunarlarni egallayotganliklari aks etgan tadbirdar hamda harbiy-sport musobaqalari to‘g‘risidagi axborotlar doimo o‘z samarasini bergan. 2024-yilda muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan yoshlar bilan suhbatlashilganida ularning aksariyati “Vatanparvarlar”, “Shunqorlar”, “Yosh chegarachilar”, “Yosh gvardiyachilar”, “Yosh qutqaruvchilar” kabi harbiy-sport musobaqalarida bevosita ishtirok etganliklari yoki tengdoshlari shu kabi musobaqalarda qatnashganligini teleko‘rsatuvlarda ko‘rganliklarini va shuning ortidan ularda harbiylik kasbiga qiziqish uyg‘ongani to‘g‘risida so‘zlab bergenlar. Ushbu holat ham OAVda harbiy-vatanparvarlik targ‘ibotining to‘g‘ri olib borilishi orqali ko‘zlangan maqsadga yetishish mumkinligidan dalolat beradi.

2024-yil 27-iyun kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga yo‘llagan tabrigida “bugungi kunda matbuot ishi, jurnalistlar faoliyati nafaqat “to‘rtinchи hokimiyat”, balki mudofaa, xavfsizlik kabi hal qiluvchi sohaga aylanib bormoqda” [4], deya qayd etdi. Ushbu e’tirofdan ham ko‘rinib turibdiki, targ‘ibotning



www.isft.uz

**“ISFT” ILMUY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL**

ISSN: 3030-329X

2024/3-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

har qanday yo‘nalishida, jumladan, fuqarolarni ma’naviy-axloqiy, harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ongiga vatanparvarlik, Vatanga daxldorlik va mehnatga mas’uliyatlari munosabat tuyg‘ularini singdirishda ommaviy axborot vositalari hal qiluvchi kuch hisoblanadi. Bu esa mamlakatimiz ravnaqi va kelajak avlod qayg‘usida bo‘lgan har bir jurnalistga, xususan, harbiy jurnalistlarga katta mas’uliyat yuklashi shubhasiz.

Muhokama va xulosa. Harbiy-vatanparvarlikni OAV orqali aholi orasida keng targ‘ib qilish bo‘yicha ishlarni yanada kuchaytirish uchun quyidagilar taklif qilinadi:

- harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi teleradio dasturlar, maqolalar va bloglar soni va sifatining oshirilishi;
- harbiy-vatanparvarlik telekanali tashkil etilishi, unda milliy armiya hayoti va harbiy-vatanparvarlikka doir yangiliklar, hujjatli va

badiiy filmlar hamda kuy-qo‘shiqlarning efirga uzatib borilishi;

- OAVda e’lon qilinadigan harbiy-vatanparvarlik borasidagi axborotlarda mavzu va mahorat borasida xatoliklarga yo‘l qo‘ymaslik choralarining ko‘rilishi;
- jurnalistlar, ayniqsa, Qurolli Kuchlar tarkibidagi vazirlik va idoralarning matbuot xizmat
- larida faoliyat yuritayotgan xodimlar malakasining oshirib borilishi;
- harbiy jurnalistlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, ushbu yo‘nalishda doimiy ravishda yetuk kadrlar yetkazilishini yo‘lga qo‘yish;
- harbiy-vatanparvarlik mavzusida yoritilayotgan axborotlarning sifati va ta’sirini aniqlash maqsadida, vaqt-vaqt bilan aholi orasida so‘rovlardan o’tkazib borilishi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ikkinci jahon urushi va front gazetalari (Birinchi kitob). – T.: Akademnashr, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samardorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 267-sonli qarori bilan tasdiqlangan “2023-2027-yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish konsepsiysi”. <https://lex.uz/docs/-6518238>

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-martdagи “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smyrlar harbiy-vatanparvarlik harakati faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-150-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-5887204>

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga tabrigi. <https://president.uz/uz/lists/view/7346>